

**ALI IBN ABU-TOLIB HALIFALIGINING ILK YILLARI**

*Farg'onan davlat texnika universiteti*

*IJtimoiy fanlar va sport kafedrasи asistenti*

***Raxmatov Abbosbek Tolipjon o'g'li***

*Islom tarixining dastlabki davrlari, ayniqsa, to'rt roshid xalifa davri, musulmonlar uchun eng ibratli va murakkab davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda yuz bergen siyosiy, ijtimoiy va diniy voqealar, keyingi islom sivilizatsiyasi shakllanishida muhim o'rinn tutadi. Ayniqsa, to'rtinchchi xalifa bo'lgan Hazrati Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu davrida yuzaga kelgan fitnalar, ichki ziddiyatlar va janglar, musulmon jamiyatining birlik va barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqolada aynan Hazrati Alining xalifalikka kelish jarayoni, voliylar tayinlanishi, fitnachilar bosimi, Muoviya bilan bo'lgan munosabatlar, Jamal va Siffin urushlari kabi tarixiy voqealar tahlil qilinadi. Tadqiqot manbaviy asosda olib boriladi va asosiy diqqat tarixiy haqiqatlarni xolis yoritishga qaratiladi.*

*Период правления праведных халифов занимает особое место в истории ислама как один из самых значимых и в то же время сложных этапов. Политические и религиозные события того времени оказали решающее влияние на дальнейшее развитие исламской цивилизации. Особенно драматичным был период халифата Али ибн Абу Талиба (да будет доволен им Аллах), который пришёл к власти в условиях нарастающих внутренних смут, отсутствия централизованной власти и усилившегося давления со стороны различных групп. Настоящая статья посвящена изучению причин, хода и последствий политических решений Али, назначения новых губернаторов, конфликта с Муавией, а также таких значимых событий, как битвы при Джамале и Сиффине. Работа основана на достоверных источниках и направлена на объективный исторический анализ.*

*The era of the Rightly Guided Caliphs represents one of the most formative and challenging periods in Islamic history. The events during this time laid the*

*foundation for much of the subsequent Islamic civilization. Among these, the caliphate of Ali ibn Abi Talib (may Allah be pleased with him) stands out for the political turmoil, internal divisions, and major conflicts it witnessed. He assumed leadership during a time of severe unrest, lack of centralized military control, and growing pressure from dissident factions. This article focuses on examining the circumstances surrounding Ali's accession to the caliphate, his appointments of provincial governors, the opposition from Muawiyah, and the major confrontations of Jamal and Siffin. The study is based on reliable historical sources and aims to provide an impartial and scholarly analysis of these critical events.*

### **Asosiy qism**

Hazrati Alining roziyallohu anhu xalifalikka saylanishi Islom tarixidagi eng og‘ir, eng sinovli davrga to‘g‘ri keldi. Hijriy 35-yil Zulhijja oyida boshlangan bu davr hijriy 40-yil 17-Ramazonida nihoyasiga yetdi. Bu vaqt mobaynida Islom ummati fitna, ichki ixtilof va siyosiy parokandalikdan aziyat chekdi. Xalifalik markazi viloyatlardan ajralib qolgani, markaziy hokimiyatning kuchsizligi, yagona armiyaning yo‘qligi Hazrati Ali roziyallohu anhuning faoliyatini jiddiy cheklab qo‘ydi.

Hazrati Usmon roziyallohu anhu shafqatsizlarcha o‘ldirilgach, musulmonlar chuqur qayg‘uga cho‘mdi. Eng ko‘p g‘amga botgan shaxs esa aynan Hazrati Ali bo‘lganini tarixchilar bir ovozdan tasdiqlaydilar. Bu holat, ayniqsa, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning quyidagi so‘zlarida yaqqol namoyon bo‘ladi: “Har bir islom tarixchisi shuni anglashlari kerakki – Hazrati Usmonning o‘ldirilishidan eng qattiq g‘amga tushgan inson bu Ali ibn Abu Tolibdir” [1].

Hazrati Ali roziyallohu anhu xalifalikka kelgan zahoti davlatni isloh qilish choralarini ko‘ra boshladi. Eng avvalo, viloyatlardagi noiblarni o‘zgartirishga kirishdi. Basraga Usmon ibn Hunayfni, Kufaga Umora ibn Shihobni, Yamanga Ubaydulloh ibn Mas’udni, Misrga Qays ibn Sa’d ibn Ubadani, Shomga esa Sahl ibn Hunayfni tayinladi [1]. Biroq bu yangi tayinlovlar turli qarshiliklarga uchradi va mahalliy ixtiloflar kuchayib bordi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Hazrati Ali tomonidan chiqarilgan muhim farmonlardan biri – Hazrati Usmonning qarindoshlariga berilgan boyliklarni Baytulmolga qaytarish haqidagi buyrug‘i edi. Bu qarorning ikki sababi bo‘lgan. Birinchisi, Hazrati Usmon roziyallohu anhu juda saxiy va yumshoqtabiat inson bo‘lgani sababli ayrim shaxslar bundan foydalanib, ortiqcha boylik orttirgan edi. Ikkinchisi, Hazrati Ali bu ishlarni fitnachilarining bosimi ostida qilishga majbur bo‘lgan edi [1].

Muoviya roziyallohu anhu, Hazrati Umar va Usmon xalifaliklari davrida Shom voliyligida xizmat qilgan edi. Hazrati Ali roziyallohu anhu esa xalifa bo‘lgach, uni lavozimidan olishga qaror qildi. Biroq bu qaror ham fitnachilarining tazyiqi ostida qabul qilingan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki Hazrati Ali xalifa bo‘lishidan avval Muoviya bilan yaxshi aloqada edi. Keyinchalik isyonchilar Qays ibn Sa’dni ham Misr voliyligidan bo‘shatishga erishdilar va buning natijasida Misrdagi vaziyat izdan chiqdi.

Hazrati Ali Shomga voliy sifatida Abdulloh ibn Umarning roziyallohu anhu nomzodini ilgari surdi. Ammo Ibn Umar bu taklifni rad etdi va Hazrati Alidan o‘zini bu mas’uliyatdan ozod qilishini so‘radi [2]. Ibn Umarning Hazrati Ali bilan bo‘lgan munosabati ba’zi manbalarda noto‘g‘ri talqin qilingan bo‘lsa-da, aslida u xalifaga bay’at bergen, unga sadoqatli bo‘lgan va uning ishonchini qozongan sahobalardan biri edi. Imom Zahabiy keltirgan rivoyatda aytishicha, Ibn Umar: “Ali meni Shomga yubormoqchi bo‘ldi, lekin men uni Payg‘ambarga yaqinligim haqqi-hurmati so‘rab rad etdim”, degan [3].

Ushbu holatlar shuni ko‘rsatadiki, Hazrati Ali roziyallohu anhu xalifalik vazifasini ado etishda harakat qilgan bo‘lsalar-da, fitnachilar tomonidan to‘sqinliklar ko‘plab bo‘lgan. Ularning bosimi bilan qilingan ayrim islohotlar keyinchalik jiddiy ixtiloflarga sabab bo‘ldi. Bu ixtiloflar Jamal va Siffin janglariga olib keldi. Ayniqsa, Siffin jangi – Hazrati Ali va Muoviya o‘rtasidagi eng katta qarama-qarshilik sifatida tarixga kirgan. Imom Navaviy bu janglar haqida shunday deydi: “Bu urushlar sababi – muammoning chigalligi edi. Ijtihoglar farqligi sababli taraflar uch qismga bo‘lindi: haq Ali tarafida deb bilganlar, unga qarshi chiqqanlar va chetda turganlar” [10].

Ahamiyatli jihat shundaki, sahabalar o‘rtasidagi bu ixtiloflar ularning

Islomga sadoqati yoki aqidaviy ziddiyatidan kelib chiqmagan. Ibn Hazmning fikriga ko‘ra, “Muoviya Alining fazilatini va xalifalik haqqini inkor etmagan. U faqat Usmonning qotillaridan qasos olishni bay’atdan ustun qo‘ygan” [7].

Xulosa qilganda, Hazrati Ali roziyallohu anhu xalifaligi davri – sinovli, murakkab va fitna-yu ixtiloflarga to‘la bo‘lgan davr edi. U zot qanchalikadolat va birlikni ta’minalashga intilmasinlar, fitna tarqatuvchilarning kuchi sababli bu maqsad to‘la ro‘yobga chiqmadi. Ammo u kishi qilgan harakatlar, ijtihadlar va sabr-toqati orqali Islom tarixida doimo ibrat va e’tibor bilan tilga olinadigan ulug‘ shaxsiyat bo‘lib qolganlar.

### **Xulosa**

Hazrati Ali roziyallohu anhuning xalifaligi Islom tarixidagi eng murakkab davrlardan biri bo‘lib, bu davr ijtimoiy, siyosiy va diniy inqirozlar bilan to‘la bo‘lgan. U zot xalifa bo‘lishi bilanoqadolatni qaror toptirish, zulmga chek qo‘yish va fitnalarni bartaraf etish yo‘lida fidokorona harakat qildilar. Viloyatlarda yanginoiblar tayinlashi, Baytulmoldagi adolatsizliklarni tugatishga bo‘lgan urinishlar va ijtimoiy islohotlar shundan dalolat beradi.

Ammo Hazrati Ali duch kelgan asosiy muammo — bu fitnachilarning doimiy bosimi, markaziy hokimiyatning kuchsizligi va sobiq xalifa Usmon roziyallohu anhuning o‘limi sabab yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik edi. Ayniqsa, Muoviya roziyallohu anhuning Shomda o‘z ta’siriga ega bo‘lib qolishi, Ibn Umarning rad etilgan voliylik taklifi, Misrdagi boshboshdoqlik – bularning barchasi Hazrati Alining qarorlarini amalga oshirishda jiddiy to‘silalar bo‘ldi.

Shunga qaramay, Hazrati Ali har bir islohotida Qur’on va Sunnat asosida ijtihad qilgan, fitnaga yo‘l bermaslik uchun imkon qadar sabr va metinlik ko‘rsatgan. Sahobalar o‘rtasidagi ixtiloflar esa ularning dinga sadoqati yoki iymoni zaifligi belgisi emas, balki o‘ziga xos ijtihodiy farqlar natijasi edi. Bu masalaga chuqr, ilmiy vaadolatli yondashish hozirgi zamon musulmonlari uchun ham muhim ibrat manbaidir.

Hazrati Ali roziyallohu anhuning shaxsi, siyosiy faoliyati va islohotlari islomshunoslik fanida o‘rganilishi zarur bo‘lgan chuqr mavzu bo‘lib, uni tahlil

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

qilish orqali musulmon jamiyatlarida siyosiy barqarorlik, adolat va birlik masalalariga aniqroq yondashuv hosil qilish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. Toshkent: Hilol-nashr, 2016.
2. Imom Muslim. Sahih Muslim. Qohira: Darul Hadis, 2005.
3. Imom Zahabiy. Siyar A'lami'n-Nubalo'. Bayrut: Risalah, 1997.
4. Tabariy, Muhammad ibn Jarir. Tarix ar-Rusul val-Muluk. Qohira: Darul Ma'rifah, 1987.
5. Ibn Sa'd. At-Tabaqat al-Kubra. Bayrut: Dar Sadr, 1990.
6. Ibn Kasir. Al-Bidaya wa'n-Nihaya. Bayrut: Maktabat al-Ma'arif, 1993.
7. Ibn Hazm. Al-Fasl fi'l-Milal wa'n-Nihal. Bayrut: Dar al-Jil, 1985.
8. Imom Navaviy. Sharh Muslim. Bayrut: Dar al-Fikr, 1996.
9. Ibn Abdul Barr. Al-Isti'ab fi Ma'rifat al-Ashab. Qohira: Dar al-Jami'a, 1989.
10. Muhammad Abu Zahra. Tarikh al-Mazahib al-Islamiyya. Qohira: Dar al-Fikr, 2000.